


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI**

**Surxondaryo viloyatida
kichik tadbirkorlik
2022- yil yanvar-mart**


Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik




Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi, % da



2020- yil



2021- yil



2022- yil

2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining **YAHM**dagi ulushi **68,6 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **12,0** birlikni tashkil qildi.

2021- yilning yanvar-dekabrida **1,4** mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **30,0** foizga kam demakdir.

2022- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Savdo



Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Qurilish




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda **439** ta, sanoatda **243** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **317** ta, qurilishda **83** ta, yashash va ovqatlanishda **85** ta, axborot va aloqada **18** ta tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari



2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

25 174




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

1 372

2022- yilning yanvar-martida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



2022- yil yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, % da

Savdo

33,5 %



Sanoat

18,5 %



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

15,2 %



Qurilish

11,4 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

6,9 %



Tashish va saqlash

3,3 %



Axborot va aloqa

1,3 %




Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

1,5 %



Boshqa faoliyat turlari


8,4 %



2020- y. 2021- y. 2022- y.

Yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

Hududlar bo'yicha yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



■ 2021- y. ■ 2022- y.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar




Shahar va tumanlar bo'yicha yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



2022- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da


2022- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Termiz shahri – 15,2 %, Denov – 10,9 %, Boysun – 8,6 %, Jarqo'rg'on – 7,7 %, Qumqo'rg'on – 7,7 %, Sherobod – 6,3 % va Sho'rchi – 5,6 % hissalariga to'g'ri keldi.





Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



■ 2021- y. ■ 2022- y.

Ma'lumot uchun: 2022- yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:

Savdoda
439 ta

Sanoatda
243 ta

Qishloq,
o'rmon va
baliqchilik
xo'jaligida
317 ta

Qurilishda
83 ta

Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida



2022- yil yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 12,0 birlikni tashkil etdi.



Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-mart holatiga ko'ra*

2020- y.

8,8


2021- y.

9,6

2022- y.

12,0

2022- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Termiz tumanida 26,0 birlik, Termiz shahrida 24,7 birlik, Qiziriq tumanida 14,5 birlik, Boysun tumanida 13,8 birlik va Sherobod tumanida 12,0 birlikni tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida



Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 2022- yil yanvar-mart holatiga ko'ra*

Eng yuqori ko'rsatkich

Termiz tumani
- 26,0 birlik.


O'rtacha ko'rsatkich

Bandixon tumani
- 10,8 birlik.

Past ko'rsatkich

Sariosiyo tumani
- 8,7 birlik.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi




2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 68,6 % ni tashkil qildi. (2021- yilning yanvar-martida 68,9 %).

* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti




2022- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 28,7 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 49,6 % ini tashkil etdi.



Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi


2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da



2022- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Bandixon tumanida - 100,0 %, Boysun tumanida - 100,0 %, Muzrabot tumanida - 100,0 %, Qiziriq tumanida 100,0%, Qumqo'rg'on tumanida - 100,0 %, Oltinsoy tumanida - 100,0 %, Sariosiyo tumanida - 100 % ni, eng past ko'rsatkich Jarqo'rg'on tumanida - 1,8 % ni tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi




Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **39,4** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **78,3** % ini tashkil etdi.



2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da




2022- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Bandixon - 100,0 %, Boysun - 100,0 %, Qiziriq - 100,0 %, Muzrabot - 100,0 %, Uzun - 100,0 %, Oltinsoy - 100,0 %, Qumqo'rg'on - 100,0 %. Eng past ko'rsatkich Sariosiyo tumanida - 4,1 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




2022- yilning yanvar-martda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **475,2** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Jarqo'rg'on tumani (64,4 mlrd. so'm), Sho'rchi (59,3 mlrd. so'm), Muzrabot (56,7 mlrd. so'm), Termiz shahri (53,3 mlrd. so'm) va Denov (39,6 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Bandixon tumanida (4,4 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati



Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi

2022- yil yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **37,4 %** ni tashkil etdi.


2022- yil yanvar-mart holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Bandixon (100,0 %), Muzrabot (100,0 %), Oltinsoy (100,0 %), Qiziriq (99,3 %), Boysun (90,4 %), Angor (90,3 %) va Sho'rchi (56,3 %) tashkil etdi. Sherobod tumanida (11,5 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **3405,4** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **92,8 %** ini tashkil etib. 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **3,4 %** ga oshganligi kuzatildi.


2022- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Denov tumani (873,2 mlrd. so'm), Termiz shahri (526,7 mlrd. so'm), Sho'rchi (327,2 mlrd. so'm), Sherobod (195,4 mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (178,0 mlrd. so'm) va Angor (161,1 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



■ hajm, mlrd. so'm ● o'sish sur'ati, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi



2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **1182,8** milliard soʻmni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **93,2 %** ini tashkil etdi. Oʻsish surʻati 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **115,3 %** ni tashkil qildi.


2022- yilning yanvar-martida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va oʻsish surʻati



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp bajarilgan qurilish ishlari hajmi Termiz shahri (318,3 mlrd. soʻm), Denov (155,2 mlrd. soʻm), Sariosiyo (99,1 mlrd. soʻm) Jarqoʻrgʻon (93,5 mlrd. soʻm), Termiz (82,2 mlrd. soʻm), Muzrabot (58,5 mlrd. soʻm), Sherobod (57,4 mlrd. soʻm) va Boysun (56,8 mlrd. soʻm) tumanlarida qayd etildi.




Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati



Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **1787,5** mlrd. soʻmlik xizmatlar koʻrsatildi yoki koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **65,4 %** ini tashkil qildi va oʻsish surʻati 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **111,5 %** ni tashkil qildi.


2022- yilning yanvar-martida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va oʻsish surʻati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp xizmatlar hajmi Termiz shahri (330,3 mlrd. soʻm), Denov (219,5 mlrd. soʻm), Jarqoʻrgʻon (121,0 mlrd. soʻm), Sariosiyo (115,1 mlrd. soʻm), Sherobod (112,5 mlrd. soʻm), Shoʻrchi (109,8 mlrd. soʻm) va Qumqoʻrgʻon (109,6 mlrd. soʻm) tumanlari hissasiga toʻgʻri keldi.

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlari


2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:




Yuk tashishda



Yuk aylanmasida



Yo'lovchi tashishda



Yo'lovchi aylanmasida

2022- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 62,4 % ni tashkil etdi. 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 108,8 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 89,7 % ni tashkil etgan bo'lib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 106,0 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 97,3 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 105,1 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 98,4 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 106,3 % ni tashkil qildi.




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil I chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma **1184** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 361 (30,5 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 770 (65,0 %) ta subektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 53 (4,5 %) ta subektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - 7,9 % (94 ta), sanoatda - 14,7 % (174 ta), qurilishda - 13,3 % (157 ta), savdoda - 39,2 % (464 ta), xizmatlar sohasida - 24,9 % (295 ta) ni tashkil etdi.

2022- yil I chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Xizmatlar




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2022- yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Termiz shahri (209 ta), Denov (132 ta), Jarqo'rg'on (107 ta), Qumqo'rg'on (85 ta), Sho'rchi (82 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari




2022- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2022- yilning I choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlarda 33,6 % ni, qurilishda 31,2 % ni, savdoda 30,6 % ni va sanoatda 27,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 70,2 % ni, sanoat sohasida 67,2 % ni va savdoda 65,7 % ni tashkil etdi.

2022- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2022- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda 56,7 %ni, xizmatlar sohasida 55,2 %ni, savdoda 51,3 %ni, tashkil etdi.

Shuningdek yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 54,2 %ni, sanoatda 47,1 %ni, savdoda 46,8 %ni tashkil etdi.

Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi

Tel.: +998 (76) 225-65-68